| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....                                                                         | 1212 |
| <b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>                                                                                   |      |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                         | 1218 |
| <b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>                                                                                                      |      |
| Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....                                            | 1222 |
| <b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>                                                                                                     |      |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....                                                                           | 1228 |
| <b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>                                                                                                           |      |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....                                                                    | 1232 |
| <b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>                                                                                                           |      |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....                                                                                    | 1238 |
| <b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>                                                                                                            |      |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....                                                        | 1242 |
| <b>Рафиева Зарина Хусановна</b>                                                                                                             |      |
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....                              | 1246 |
| <b>Akhmedov Doniyorbek</b>                                                                                                                  |      |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....                                                       | 1250 |
| <b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>                                                                                                          |      |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....                                                         | 1254 |
| <b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>                                                                                                          |      |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....                                                                     | 1261 |
| <b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>                                                                                                      |      |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....                                       | 1266 |
| <b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>                                                                                                   |      |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....                                                                            | 1272 |
| <b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>                                                                                                  |      |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....                                                  | 1277 |
| <b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>                                                                                                        |      |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....                                    | 1282 |
| <b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>                                                                                                          |      |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....                             | 1286 |
| <b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>                                                                                                   |      |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....                                                                 | 1294 |
| <b>Мансурова Севара Мансуровна</b>                                                                                                          |      |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....                                                                                | 1297 |
| <b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>                                                                                                     |      |



# O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI VA TASHQI MUHIT

**Saypullayev Ilhomjon Abduraxmonovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), NamMQI, Menejment kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ichki va tashqi muhit yaratilishining ahamiyati yoritib berilgan. Mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarning qonuniy asoslari ishlab chiqilganligi, tadbirkorlik faoliyati uchun to'siq bo'layotgan muammolar va mamlakat rahbarining tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotlarida mazkur muammolar yechimi bo'yicha bergan takliflarining amaliyotga joriy etilishi, qabul qilingan Prezident qarorlarida ularning aks ettirilganligi bo'yicha tahlillar keltirib o'tilgan. Ichki muhitni yaratishda muhim omillardan biri bo'lgan marketingni to'g'ri yo'lga qo'yilganligining tahlili amalga oshirilgan. Kompaniyaning butun hayotiy sikli 6 ga: "Paydo bo'lish", "Rivojlanish", "Etilish", "Pasayish", "Inqiroz" va "Tiklanish" davrlariga bo'lingan va har bir davrda marketing bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning asosiy yo'nalishlaridan bir nechtalari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes korxonalari, innovatsiya, korxonalarni deformatsiyalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, moliyaviy kredit va motivatsion fon, mikro biznes, kichik biznes, o'rta biznes, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmi, tadbirkorlik jamg'armasi, moliyalashtirish mexanizmlari, investitsiyalar, eksport, brend, soliq ma'muriyatchiligi, tijorat banki, biznesga ko'maklashish markazlari, marketing.

**Abstract:** This article highlights the importance of creating an internal and external environment necessary for the development of small and medium-sized businesses. The analysis of the development of the legal framework for efforts to support entrepreneurship in the country, the problems that become an obstacle to entrepreneurship and the implementation of the proposals made by the President in his open dialogues with entrepreneurs to solve these problems, their reflection in the decisions taken, was given. An analysis of the correctness of marketing was carried out, which is one of the important factors in creating an internal environment. The entire life cycle of the company is divided into 6 periods: They are: "emergence", "development", "maturity", "decline", "crisis" and "recovery", and in each period there are several main activities which carried out in the field of marketing.

**Key words:** Small business enterprises, innovation, enterprise deformation, small business and private entrepreneurship, prerequisites for financial lending and motivation, microbusiness, small business, medium business, entrepreneurship support mechanism, entrepreneurship fund, financing mechanisms, investment, export, brand, tax administration, commercial bank, business assistance centers, marketing.

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается важность создания внутренней и внешней среды, необходимой для развития малого и среднего бизнеса. Был приведен анализ развития правовой базы для усилий по поддержке предпринимательства в стране, проблем которые становятся препятствием для предпринимательской деятельности и внедрения в практику предложений высказанных президентом в его открытых диалогах с предпринимателями по решению этих проблем, их отражения в принимаемых решениях. Был проведен анализ правильности маркетинга, который является одним из важных факторов создания внутренней среды. Весь жизненный цикл компании делится на 6 периодов: "возникновение", "развитие", "зрелость", "упадок", "кризис" и "восстановление", и в каждом периоде приводится несколько основных направлений деятельности, осуществляемых в области маркетинга.

**Ключевые слова:** Предприятия малого бизнеса, инновация, деформация предприятия, малый бизнес и частное предпринимательство, предпосылки финансового кредитования и мотивации, микробизнес, малый бизнес, средний бизнес, механизм поддержки предпринимательства, фонд предпринимательства, механизмы финансирования, инвестиции, экспорт, бренд, налоговое администрирование, коммерческий банк, центры содействия бизнесу, маркетинг.





## KIRISH

Jahon tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, kichik va o'rta biznesning sivilizatsiyalashuvi nafaqat milliy iqtisodiyotimizni, balki mamlakatimizning ijtimoiy hayotini tubdan yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Yer yuzidagi eng katta daryolar ham asosini kichik irmoqlardan olgani singari iqtisodi baquvvat rivojlangan mamlakatlarning daromad manbayi bo'lgan katta-katta konsernlar, sanoat korxonalari ham dastlab kichik biznes korxonalari negizida shakllangan. Kichik korxonalar o'zlarining ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorliklari bilan mamlakat bozorida raqobat muhitini yaratadi, bu esa o'z navbatida tovar va xizmatlar sifatini oshib narxini pasayishiga xizmat qiladi. Mulkchilik shaklidan qat'i-nazar kichik korxonalar sonining ko'payishi mahsulotlar turi va assortimentini ko'payishi bilan mahsulotlar tanqisligini bartaraf etadi.

Shuning uchun kichik biznes korxonalari oqimini muntazam kuchaytirib borish, ularni rivojlanishi va gigant korxonalarga aylanishi uchun ham tashqi, ham ichki qulay muhitni yaratib bera olish muhim hisoblanadi.

Tashqi muhit mamlakatni iqtisodiy sohada olib borayotgan islohotlari hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning qonuniy asoslari orqali tashkil topsa, ichki muhit esa korxonaning kadrlar salohiyati, oqilona boshqaruvi, innovatsion va kreativ yondashuv, eng muhimlaridan biri esa marketingni to'g'ri yo'lga qo'yilganligidir.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan tashqi muhitni ko'rib chiqadigan bo'lsak, hozirgi kunlarda mamlakatimizdagi ijtimoiy hayotning turli sohalarida kichik tadbirkorlikni shakllantirish jarayoni hali ham juda qiyin va og'riqli kechmoqda. Korxonalarni rivojlantirish zarur hollarda deformatsiyalash jarayonlari byurokratik yoki moliyaviy to'siqlarga uchrash bilan birga nafaqat hisoblash mumkin bo'lgan daromadni bermaydi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yangi qiyinchiliklarni, yangi iqtisodiy va ijtimoiy anomaliyalarni keltirib chiqaradi.

So'nggi yillarda davlat rahbari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kuchli ijtimoiy islohotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, milliy iqtisodiyotimizning bozor o'zgarishi davrida kichik biznesni shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy mexanizmi mukammal tarzda ishlab chiqildi deb ayta olmaymiz. Tadbirkorlik uchun hali ham jahonning ilg'or davlatlardagi kabi qulay moliyaviy, kredit va motivatsion fon mavjud emas, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, ilmiy qo'llab-quvvatlash, konsalting, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yaratilmagan. Shuningdek, kichik biznesni shakllantirish sohasida maqbul bo'lgan davlat va huquqiy qo'llab-quvvatlash choralarning konsepsiyasi, modeli va tizimi to'laonli shakllantirilmagan. Umumiy holatda aytadigan bo'lsak kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish tizimida hosil bo'layotgan nazariy va amaliy muammolarni hal qilish mexanizmi hali ham shakllanish bosqichida.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2022-yilning 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 5 ta yo'nalishda tashabbuslar keltirib o'tilgan. Birinchi yo'nalishga ko'ra korxonalar toifalarga ajratilib, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yondashuv belgilanishi, ya'ni 1 mlrd. so'mgacha mablag' aylanmasiga ega bo'lgan korxonalar – mikro biznes, 10 mlrd. so'mgacha mablag' aylanmasiga ega bo'lgan korxonalar – kichik biznes; 100 mlrd. so'mgacha mablag' aylanmasiga ega bo'lgan korxonalar o'rta biznes toifalariga ajratilishi va ular bo'yicha alohida soliq stavkalari joriy qilinishi aytili. Shunga ko'ra ikkinchi toifadagi korxonalar yillik foyda solig'ini 2 barobar kam to'lanishi, 2-toifadan 3-siga o'tgan korxonalar ikki yil uchun soliqning 50 foizini to'lash imtiyoziga ega bo'lishi, mulk sug'urtasining 50 foizi budjet hisobidan to'lab berilishi kabi imtiyozlar yaratib berilishi aytib o'tildi.

Bundan tashqari, keltirilgan ikkinchi tashabbusga ko'ra kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar uchun 20 trillion so'm miqdoridagi mablag'lar ajratilishi, tuman va shaharlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, biznes uchun alohida yondashuvlar joriy qilinishi rejalashtirilgan edi.

Mazkur tashabbuslar ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan soliq islohotlarini izchil davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish hamda 2022-yilning 22-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash asosiy maqsad etib belgilandi hamda yuqoridagi tashabbuslarning qonuniy asoslari ishlab chiqildi.

Kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va ishlab chiqarishning umumiy hajmida salmoqli ulushni egallaydi. Biroq kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolar mavjud, masalan, investitsiyalarning yetishmasligi, raqobatbardoshlikning pastligi, kredit olishda qiyinchiliklar va boshqalar. Umuman olganda, O'zbekistonda kichik biznes o'sish va rivojlanish salohiyatiga ega, ammo davlat va investorlarning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj.



Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2023-yil 18-avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazilgan navbatdagi ochiq muloqotida qilgan murojaatida jahonda ro'y berayotgan siyosiy holat tufayli tadbirkorlarning logistika va ta'minot zanjiridagi uzilishlar, yuqori global inflyatsiya sabab hamkor mamlakatlardagi valyuta devalvatsiyasi, moliyaviy resurslar narxining oshishi kabi omillar bilan kurashishga majbur bo'layotganliklarini ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirib borish yuzasidan mamlakat rahbarining tadbirkorlar bilan tashkil etilgan ochiq muloqotida biznes vakillarining taklif va mulohazalari, biznesni rivojlantirishning kelgusi qadamlarini belgilab beruvchi yillik tadbirlardan biriga aylanishi bildirib o'tildi.

Prezident aytganidek, O'zbekiston iqtisodiyotida o'rta biznes muhim o'rin tutadi, biroq ular uchun hozirgi sharoit yetarli emas. Shu bois kichik biznesdan o'rta biznesga o'tishga intilayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi yondashuvlar amalga oshiriladi.

Joriy yilda O'zbekiston prezidenti tadbirkorlar bilan ochiq muloqot chog'ida kelib tushgan takliflar asosida ishlab chiqilgan va mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armalarining faoliyat usullarini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yaqin kelajakda Tadbirkorlik jamg'armasi xizmat ko'rsatish, ekologik va energiyani tejash loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi esa sanoat loyihalarini nazorat qilish uchun javobgar bo'lishi, mablag'larni boshqarish uchun chet ellik malakali menejerlar taklif qilinishi, bundan tashqari, jamg'armalar budget mablag'laridan tashqari mustaqil investitsiyalarni jalb qilish huquqiga ega bo'lishi aytiladi.

Prognozlarga ko'ra, bunday mablag'lar orqali jamg'armalar kelgusi yilda o'rta biznesni moliyalashtirish uchun qo'shimcha 1 milliard dollar to'play oladi. Har bir hududda kamida uchtdan yangi sanoat zonalarini tashkil etiladi. Sanoat ipoteka tizimi joriy etiladi, tadbirkorlar uchun "tayyor korxonalar" ko'rinishidagi ishlab chiqarish maydonlari barpo etiladi. Sanoat zonalarida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, investitsiya majburiyatlari bajarilgandan so'ng yer uchastkalarini xususiyashtirish boshlanadi.

Kichik va o'rta biznes uchun yangi imkoniyatlar ochib berish yuzasidan O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng qamrovli ekotizim yaratish maqsadida "Qishloqqurilish bank" Business Development Bankga aylantirilishi rejalashtirildi. Bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o'zgarishlarga uchrashi, xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etilib ularda tadbirkorlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan biznes loyihalarini ishlab chiqishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Ular yangi loyihalarini amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o'qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, marketing, yuridik va boshqa maslahat xizmatlarini taklif etadi. Markazlar yangi korxonalarga zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulotlarini samarali yo'lga qo'yishda yordam berishi ma'lum qilingan edi.

Bundan tashqari, yurtboshimiz o'z nutqida yuqorida aytilgan jamg'armalarga mustaqil ravishda investitsiyalarni jalb qilish huquqi berilganini, bu jamg'armalar kelgusi yilda o'rta biznes uchun qo'shimcha 1 milliard dollar sarmoya jalb etishni maqsad qilganini ta'kidladi.

Mamlakatimiz uchun eksportni kengaytirishning yana bir muhim imkoniyatlaridan bu O'zbekistonga nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish ekanligi aytib o'tildi. Jumladan, hozirda Ispaniya, Germaniya, Polsha va Turkiyaning yirik brendlari bilan muzokaralar o'tkazish jarayoni boshlangan.

Mahalliy korxonalarga sarmoya kiritish va buyurtma berishni osonlashtirish uchun ularni tashvishga soladigan uchta muhim masala hal qilinishi, ya'ni ishlab chiqarish uchun xalqaro standartlar, ekologik va sertifikatlashtirish talablari amalga oshirilishi, tegishli mehnat sharoitlari yaratilishi, taniqli brendlar mahsulotlarini olib kirish va olib chiqishda qulay bojxona rejimi joriy etilishi shubhasiz katta qadam hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan muloqotlar natijasida mavjud muammolarni bartaraf etish hamda kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash mexanizmini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda o'tgan ikki yilda biznes vakillari bilan o'tkazilgan ochiq muloqotlar natijasida tadbirkorlik sohasida ko'plab tizimli muammolar hal etilgani, shu jumladan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarini amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilganligi ko'rsatib o'tildi.



Muloqot doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan qariyb 6 mingta murojaatda ko'tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirishning ustuvor vazifalarini bajarish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish, o'rta biznesni barqaror iqtisodiy o'sish garoviga aylantirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish, yuqori daromadli korxonalarni ko'paytirish, soddaliq ma'muriyatchiligi va byurokratiyadan holi bo'lgan qulay muhit yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

"Qishloqqurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki negizida kichik biznes subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirilgan "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. Bank huzurida xalqaro moliya institutlarining mablag'lari va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali istiqbolli kichik biznes loyihalarini amalga oshiradigan "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilishi belgilandi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlariga biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va ishga tushirishga ko'maklashish, ularga konsalting xizmatlarini ko'rsatishga mas'ul bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazlari tashkil etiladigan bo'ldi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik subyektlari loyihalarini kengaytirish va yangi kichik biznes loyihalarini ishga tushirish maqsadida qulay shartlarda kreditlar ajratish va ularga garov talabi 50 foizga kamaytirishi belgilandi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining sanoat sohalarida "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullanib o'ta qulay foiz stavkalarida uzoq muddatgacha kredit mablag'lari ajratilishi belgilandi.

Tadbirkorlarning kreditlarni qaytarish jarayonidagi muammolar bilan bog'liq holatlar uchun iqtisodiy jarima va to'lovlarni yumshatish bo'yicha qator choralar belgilab qo'yildi.

Yuqoridagilarga asoslanib O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda tashqi muhitning o'rnini aniqlash uchun oxirgi bir yarim yildagi islohotlarni tahlili bo'yicha aytishimiz mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli tobora ortib borishi bilan birga tadbirkorlikning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal qilishga yordam beradigan mexanizm takomillashib bormoqda.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda ichki muhitning asosiy omillaridan bo'lgan marketing sohasini yo'lga qo'yilganligini o'rganib chiqamiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida tashkil etilgan katta-katta loyihalar amalga oshmasdan qolib ketganligi, xorijiy investitsiyalar hisobiga yoki xorijiy hamkorlar bilan tashkil etilgan ishlab-chiqarish quvvatlari kutilgan iqtisodiy samara keltirmagan holatlari mavjudki, ularning asosiy sabablaridan biri bu marketingni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi deyishimiz mumkin. Tarixda ko'rishimiz mumkinki, transport xarajatlarning mahsulot tannaxsiga ta'siri, mavjud xom ashyo zaxirasi, ishlab chiqariladigan tovarning bozordagi raqobatbardoshligi, mahalliy xom ashyolarning xorijdan katta mablag' hisobiga keltirilgan ishlab-chiqarish texnologiyasiga mos kelmasligi, bozor ko'lami kabi marketingning oddiy hisob-kitoblari to'g'ri tahlil qilinmaganligi natijasida katta iqtisodiy zarar ko'rish holatlari bo'lgan.

Hozirgi kunda kichik biznes sohasida marketingni to'g'ri yo'lga qo'ymaslik hisobiga rivojlana olmayotgan yoki faoliyati tugatilgan korxonalarni ham juda ko'plab uchratishimiz mumkin.

Xalqimiz orasida marketing o'zi nima ekanligi, uning mohiyatini tushunmaydiganlari katta qatlamni tashkil etadi. Vaholanki, tadbirkorlar xalqning ichidan yetishib chiqadi.

1980-yillarda mamlakatimizning iqtisodiy oliy o'quv muassasalarida marketing kursi o'qitila boshlagan bo'lsa-da, asosiy tushunchalar O'zbekistonga 1990-yillardan boshlab kirib kela boshlagan. Marketing bo'yicha xorijiy adabiyotlar tarjima kilingan holda, O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan ham yangi darslik va qo'llanmalar yaratib kelinmoqda.

Oradan 30-40 yil o'tgan bo'lsa ham omma ichida ko'pchilik "marketing" tushunchasini "sotish" so'zining analogi sifatida ishlatishadi.

Yoxud marketologlar haqida odamlarda shakllangan noto'g'ri tushunchalarni 7 guruhga bo'lib, tahlil qilib chiqish mumkin;

Ularning birinchisi odamlar marketologlarni "Reklamachilar" – deb o'ylashadi. Tovarlar va xizmatlarni targ'ib qilish va reklama qilish faoliyati deb tushunishadi. Sotish yoki reklama marketing jarayonining bir qismidir, ammo marketing yanada kengroq ma'noga ega.


Ikkinchi yangilish tushuncha bu "Qutqaruvchilar" bo'lib, biznes bankrot bo'lgan paytdagina marketologlar kelib tezkor qutqaruv choralarni ko'radi, deb o'ylashadi. Uchinchi yangilish tushuncha "Sotishni qo'llab-quvvatlovchi" – bo'lib, faqatgina tovar va xizmatlarni sotish tadbirlarini ko'ruvchi insonlarni tushunadilar. To'rtinchi yangilish tushuncha marketing bu – "Korxonadagi shunchaki shtat birligi" bo'lib ish o'rni qisqargan yoki tanish-bilishlarni vaqtincha ish bilan ta'minlab turuvchi ish o'rni, deb o'ylashadi. Beshinchi yangilish tushuncha esa raqobatchilar nimalarni sotishyapti, qanday usulda va qanaqa narxlarda degan savollarga javob izlashadi



degan fikrdalar. Oltinchi yanglish tushuncha “G’oyakorlar” – deb o’ylashadi. G’ayratli, yangi g’oyalarga ega, tinib-tinchimas odamlar. Tadbirkorga kelib foyda olish yo’llarini ko’rsatib bera oladiganlar degan fikrdalar. Yetinchi yanglish fikr esa biznesni inqirozga uchrashi, tovarlarni sotilmay qolishi, barcha ayb marketologlarga yuklatilishi kerak deb o’ylashadi.

Aslida esa Marketing bu – Kompaniyaning butun hayotiy sikli davomida foydalaniladigan, aniq ko’rsatkich va raqamlarga asoslangan hamda biznesni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish, xaridorlarni jalb qilish va ushlab qolishga qaratilgan muhim strategik tadbirlar kompleksi.

### КОМПАНИЯНИНГ БУТУН ҲАЁТИЙ ЦИКЛИ ДАВОМИДА МАРКЕТИНГ



Yuqoridagi chizmada kompaniyaning butun hayotiy sikli 6 ga, “Paydo bo’lish”, “Rivojlanish”, “Yetilish”, “Pasayish”, “Inqiroz” va “Tiklanish” davrlariga bo’lingan va har bir davrda marketing bo’yicha amalga oshiriladigan asosiy tadbirlardan bir nechta yo’nalishlarilari keltirib o’tilgan.

Kichik biznesda marketing mavzusi dolzarbdir, chunki tobora ko’proq kompaniyalar o’z bizneslarini kengaytirish va daromadlarni oshirishga intilmoqda. Kichik biznes mijozlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish uchun marketing vositalaridan to’g’ri foydalansagina muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Kichik biznes bilan ishlashda e’tiborga olish kerak bo’lgan asosiy jihatlardan biri shundaki, ushbu bozor segmentida raqobat juda yuqori. Shuning uchun raqobatdan ajralib turish va mijozlar e’tiborini jalb qilish uchun samarali, hududlar sharoiti va aholi mentalitetiga mos keladigan marketing strategiyalaridan foydalanish kerak. Kichik biznes odatda cheklangan marketing budjetiga ega, shuning uchun iloji boricha samarali bo’ladigan va katta xarajatlarni talab qilmaydigan vositalarni tanlash kerak. Kichik biznesda marketing kompaniyaning imidjini yaratish va uning raqobatchilar o’rtasida obro’sini ko’tarishda katta ahamiyatga ega. Kompaniya marketing strategiyasini to’g’ri tanlay olsa, bu mijozlar sonining ko’payishiga, sodiqlik darajasining oshishiga va moliyaviy ko’rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keladi.

O’rta biznes iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo’lib, marketologlar yangi mijozlarni jalb qilish va mavjudlarini saqlab qolishda muhim rol o’ynaydi. O’rta biznes kompaniyalar o’rtasida raqobat juda kuchli va beshavqat bo’lish bilan birga mag’lubiyatga uchrash kichik biznesdan ko’ra birmuncha ko’proq darajada og’riqli bo’ladi. O’rta biznes kompaniyalari iste’molchilar imtiyozlari va bozor talablarining o’zgarishi bilan





bog'liq jarayonda diversifikatsiya bilan bog'liq muammolarga duch kelishi mumkin, bu esa marketing strategiyasini doimiy tahlil qilish va moslashtirishni talab qiladi. Va nihoyat, o'rta biznesdagi marketing o'z mahsulotlari va xizmatlariga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi, bu esa savdo va rentabellikning oshishi orqali asosiy maqsad bo'lgan foyda olish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda o'rta biznes marketingining dolzarbligini bir qancha omillar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin:

- birinchidan ko'plab iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar singari O'zbekistonda ham o'rta va kichik biznes subyektlari sonining jadal o'sishi kuzatilmoqda.
- ikkinchidan tovarlar va xizmatlar bozorida raqobat tobora kuchayib bormoqda. O'zbekistonda mijozlar va savdo bozorlari uchun bir-biri bilan raqobatlashadigan ko'plab o'rta va kichik kompaniyalarning tajribasi ham ortib bormoqda va mijozlarning e'tiborini jalb qilish va ushlab turish uchun marketing tobora muhim vositaga aylanmoqda.
- internet-marketing O'zbekistonda ham o'rta va kichik biznes uchun tobora ommalashib bormoqda. Shu sababdan internet texnologiyalarini rivojlantirish orqali internet-marketingni samarali yo'lga qo'yish kompaniyalarga o'z mahsulotlari va xizmatlarini tez va samarali targ'ib qilish, shuningdek, mijozlardan fikr-mulohazalarini olish orqali faoliyatni takomillashtirib borish imkonini beradi.
- to'rtinchidan iste'molchilarning ehtiyojlari va talablarini o'zgarib borishi. O'zbekistonda iste'molchilar bozorlarga chiqayotgan tovarlarning sifati, shuningdek, xizmat ko'rsatish darajasiga bo'lgan munosabatlar o'zgarib, ko'proq talabchan bo'lib bormoqdalar. Shuning uchun marketing ushbu ehtiyoj va talablarni o'rganib, ularni to'laigicha qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston sharoitida o'rta biznesni rivojlantirish va mijozlar ehtiyojini qondirish hamda shu bilan birga korxonani muvaffaqiyatli kelajagini ta'minlash uchun marketing dolzarb va muhim yo'nalish hisoblanadi. Shu sababdan tanlangan bozorda uzoq va yuqori ulush bilan faoliyat ko'rsatishni rejalashtirgan kompaniyalar o'z mahsulotlari va xizmatlarini O'zbekiston bozorida sotish uchun marketing vositalari va strategiyalaridan faol foydalanishlari kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-292-sonli qarori.
3. Saypullayev I. A. The Importance Of A New Professional Education System In Small Business Development In Uzbekistan. Theoretical & Applied Science. 2021(8):254-9.
4. Abdurahmanovich, S. I. (2022). The Role Of Small Business And Private Entrepreneurship In Economic Development. International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 59-68.
5. Abdurahmanovich, S. I. (2022). Classification Of Factors Affecting The Development Of Small Business And Private Entrepreneurship. International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 80-89.
6. Abdurahmanovich, S. I. (2022). Theoretical Foundations Of Institutional Development Of Small Business And Private Entrepreneurship. Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(07), 56-66.
7. Abduraxmonovich, S. I. (2021, October). Indicators Of Financial Performance Of Small Business And Entrepreneurship. In Archive of Conferences (pp. 39-42).
8. Abduraxmonovich, S. I. (2021). Forms Of Credit For Small Business And Entrepreneurship. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 262-269.
9. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Formation of financing technology and communication relations in increasing the competitiveness of small business entities. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 49-58.
10. Turgunpulatovich, A. O. (2022). The concept of shaping the competitiveness of small businesses and its essence. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 171-178.
11. Turgunpulatovich, A. O. (2022). The concept of forming the competitiveness of small business entities and its essence. Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(07), 46-55.
12. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Modern trends in the formation of international competitiveness of the national economy. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 69-79.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.